# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING
# QARORI

Navoiysh., IslomKarimovsh.k 77 A

2023 - yil 11 - mart 30-5-0-Q/23 Navoiy viloyat hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash haqida**

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilab berilgan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta’lim sifatini ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish hamda kambag‘allikni qisqartirish borasidagi islohatlarimizni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar ijrosini ta’minlash maqsadida:

**QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” (keyingi o‘rinlarda - Davlat dasturi) tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Navoiy viloyatida “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” ijrosini ta’minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturi (keyingi o‘rinlarda - Kompleks chora-tadbirlar dasturi) 1-ilovaga muvofiq;

Navoiy viloyatida “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” ijrosini ta’minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasi:

viloyat hokimining o‘rinbosarlari T. Atamurodov, Y. Dushanov, M. Mamadiyarova, viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L. Xayrullayev), ichki ishlar boshqarmasi (A. Tasbayev), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (U. Baxromov) shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda davlat dasturi ijrosini samarali, qat’iy tartib-intizom asosida tashkil etib, uch kun muddatda tuman (shahar) va mahalla kesimida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirish bo‘yicha tegishli dasturlarni ishlab chiqsin;

hududiy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, aloqador tashkilot va idoralar, tuman (shahar) hokimliklarining davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirsin, shuningdek, joylarda ijro etilishi ustidan tizimli nazoratni ta’minlasin.

5. Tuman (shahar) hokimliklari, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlariga:

davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlardan kelib chiqib, amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan o‘zlarining tegishli chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish hamda davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ijro

etilishini ta'minlash;

davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi bo'yicha keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda mas'ul shaxslarning hisobotini eshitib borish;

davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturining ijrosini har oyda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari yig'ilishlarida muhokama qilib borilishini tashkil etish;

davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlarni har oyning 25-sanasiga qadar muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasiga taqdim etib borish topshirilsin.

6. Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Y. Dushanov viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi (Z.Rasulov), viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (O'.Tillayev), viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O'.Mirzoyev) bilan birgalikda viloyatda sog'liqni saqlash, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar doirasida tizimli choralar ko'rib borsin.

7. Viloyat hokimining o'rinbosarlari, kompleks rahbarlari davlat dasturi hamda kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlash borasida o'tkaziladigan yig'ilishlarda bandma-band tahlil qilib, amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy ko'rib borsin.

8. Viloyat hokimligi axborot xizmati (B. Pirnafasov), viloyat teleradiokompaniyasi (G'. Sultonov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi (D. Mamarajabov), "Do'stlik bayrog'i" va "Znamya drujbi" gazetalari tahririyati (B. Umarov)ga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni mazmun-mohiyatini hamda davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib viloyat hokimi o'rinbosarlari, tarkibiy bo'linma va guruh rahbarlari, tashkilot va idoralar rahbarlari hamda tuman (shahar) hokimlari belgilansin.

10. Mazkur qaror ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Viloyat hokimi** **N.Tursunov**

Navoiy viloyat hokimining
2023 yil 11 martdagi
30-5-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

**Navoiy viloyatida “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” ijrosini ta’minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasi**

## TARKIBI

| | | |
|---|---|---|
| N.Tursunov | - | viloyat hokimi, ***viloyat komissiyasi raisi*** |
| T.Atamurodov | - | viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari, ***viloyat komissiyasi raisining oʻrinbosari*** |
| B.Bobomurodov | - | viloyat hokimining kapital qurilish, kommunikasiyalar va kommunal xoʻjalik, ekologiya va koʻkalamzorlashtirish masalalari boʻyicha oʻrinbosari, ***viloyat komissiyasi raisining oʻrinbosari*** |
| J.Boliyev | - | viloyat hokimining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari v.v.b, ***viloyat komissiyasi raisining oʻrinbosari*** |
| Lavozimiga koʻra | - | viloyat hokimining oʻrinbosari - viloyat investisiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshligʻi, ***viloyat komissiyasi raisining oʻrinbosari*** |
| Y.Dushanov | - | viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari, ***viloyat komissiyasi raisining oʻrinbosari*** |
| S.Mirzayev | - | viloyat hokimining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikasiyalar masalalari boʻyicha oʻrinbosari, ***viloyat komissiyasi raisining oʻrinbosari*** |
| Gʻ.Musurmanov | - | viloyat hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar boʻyicha oʻrinbosari, ***viloyat komissiyasi raisining oʻrinbosari*** |
| M.Mamadiyarova | - | viloyat hokimining oila va xotin-qizlar masalalari boʻyicha, ***viloyat komissiyasi raisining oʻrinbosari*** |

**A’ZOLARI:**

| | | |
|---|---|---|
| Gʻ.Yaxshilikov | - | viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari boʻyicha maslahatchisi |
| Lavozimiga koʻra | - | viloyat hokimligi apparati tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari |
| J.Bobomurodov | - | viloyat hokimligi apparati axborot-tahlil guruhi rahbari |
| U.Sharipov | - | viloyat hokimligi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari guruhi rahbari |
| F.Kazakov | - | viloyat hokimligi yuridik xizmati boshligʻi |
| J.Hamrayev | - | Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati mudiri *(kelishuv asosida)* |
| B.Axmedov | - | viloyat prokurori *(kelishuv asosida)* |

| | | |
|---|---|---|
| A.Tasbayev | - | viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i *(kelishuv asosida)* |
| A.Murodov | - | viloyat ma’muriy sudi raisi *(kelishuv asosida)* |
| A.Sarabekov | - | viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i |
| B.Pulatov | - | viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i |
| Sh.Musayev | - | viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig‘i |
| A.Botiraliyev | - | viloyat davlat soliq boshqarmasi boshlig‘i |
| D.Yusupov | - | viloyat bojxona boshqarmasi boshlig‘i |
| Z.Sultonov | - | Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat bo‘limi rahbari *(kelishuv asosida)* |
| G‘.Aliyev | - | “Yuksalish” umummilliy harakatining Navoiy viloyat bo‘linmasi rahbari *(kelishuv asosida)* |
| D.Ochilov | - | viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i v.b |
| L.Xayrullayev | - | viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i |
| X.Pardayev | - | Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi boshlig‘i |
| A.Tashnazarov | - | viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i |
| A.Sharipov | - | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i |
| N. Zoirov | - | Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i |
| A.Muhammadiyev | - | Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i |
| A.Bo‘ronov | - | Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i |
| N.Jumaniyozov | - | viloyat uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i |
| A.Niyozov | - | viloyat qurilish boshqarmasi boshlig‘i |
| B.Raximov | - | viloyat transport boshqarmasi boshlig‘i |
| X.Baqoyev | - | viloyat tabiat resurslari boshqarmasi boshlig‘i |
| N.Gaffarov | - | “Navoiy hududgaz” gaz ta’minoti filiali rahbari |
| B.Islomov | - | “Navoiy hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ direktori |
| O.Zaripov | - | “Navoiy suv ta’minoti” MCHJ rahbari |
| V.Avlonov | - | viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i |
| A. Ubaydullayev | - | quyi Zarafshon irrigasiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i |
| O.Nizamov | - | viloyat vyeterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i |
| E.G‘afforov | - | viloyat investisiya va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari |
| Z.Rasulov | - | viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i |
| O‘.Tillayev | - | viloyat maktabgacha va maktab ta’lim boshqarmasi boshlig‘i v.v.b. |
| O‘. Mirzoyev | - | viloyat oliy ta’lim, fan va innovasiyalar boshqarmasi boshlig‘i v.b |
| O.Raxmonov | - | viloyat yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi boshlig‘i v.b |
| U.Baxromov | - | Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i |
| N.Niyazov | - | viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig‘i |
| D.Xo‘jayev | - | viloyat turizm boshqarmasi boshlig‘i |

| | | |
|---|---|---|
| A.Muqimov | - | Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi rahbari |
| D.Mamarajabov | - | Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi rahbari *(kelishuv asosida)* |
| G‘. Sultonov | - | viloyat teleradiokompaniyasi direktori *(kelishuv asosida)* |
| Sh.Sulaymonov | - | “Do‘stlik bayrog‘i” va “Znamya drujbi” gazetalari bosh muharriri |
| Lavozimiga ko‘ra | - | shaharlar va tumanlar hokimlari |

***Izoh: muvofiqlashtiruvchi viloyat komissiyasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.***